

Reklama to'g'risidagi qonunning mazmun-mohiyati tushuntirildi



Reklama to'g'risidagi qonunning mazmun-mohiyati tushuntirildi

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2021 yil 28 dekabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2022 yil 17 martda ma'qullangan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 7 iyunda imzolangan. Mazkur Qonun 8 bob, 53 moddadan iborat. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kirishi belgilangan.

O'z navbatida, mazkur Qonunning mazmun-mohiyati, asosiy talablari hamda ahamiyati yuzasidan aholi va tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borishdan iborat.

Shu munosabat bilan bugun Termiz shahar hokimligida Surxondaryo viloyat hokimligi hamda Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi hamkorligida ushbu tadbir tashkil etildi.

Tadbirda, Surxondaryo viloyat hokimining maslahatchisi O.E.Sevarov hamda Surxondaryo viloyati Monopoliyaga qarshi kurashish hududiy boshqarmasi boshqarmasining Reklama faoliyatini tartibga solish bo'limi boshlig'i A.A.Xolmirzaev, shuningdek shahrimizdagi reklama faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ishtirok etishdi. Mazkur Qonun mazmun-mohiyatining taqdimotidan so'ng "Davlat tilida ish yuritish" kitobi tadbir ishtirokchilariga taqdim etildi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

